

JARQO`RG`ONLIK JANGCHILARNING FASHIZMGA QARSHI KURASHI

Toshboltayev Islom Bahodir o‘g‘li

IV Surxondaryo akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi.

mamasoatr@gmail.com +998 93-766-99-08.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14555673>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Germaniya tomonidan boshlangan 1939-yilgi urush va unga Jarqo`rg`on tumanida borgan jangchilarning qahramonona harakatlari, urushning Sovet davlati foydasiga hal bo`lishiga qo`shgan hissasi to`g`risida batafsil ma`lumotlar berilgan.

Maqolada keltirilgan ro`yhatdagi shaxslarning ba`zilari bugungi kunda ham hayot ekanliklari bizga faxr tuyg`usini beradi.

Kalit so`zlar: Komsomol, komunizim, sotsializim, Qizil armiya, “Ulug’ vatan” urushi, QIZIL YULDUZ ordeni, fashist.

THE STRUGGLE OF THE ZHARKURGAN FIGHTERS AGAINST FASCISM

Abstract. This article provides detailed information about the 1939 war started by Germany and the heroic actions of the soldiers who participated in it in the Jarkurgan district, their contribution to the resolution of the war in favor of the Soviet state. The fact that some of the persons listed in the article are still alive today gives us a sense of pride.

Key words: Komsomol, communism, socialism, Red Army, "Great Fatherland" war, Order of the RED STAR, fascist.

БОРЬБА БОЙЦОВ ДЖАРКУРГАНА ПРОТИВ ФАШИЗМА

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о развязанной Германией войне 1939 года и героических действиях воинов, участвовавших в ней в Джаркурганском районе, их вкладе в разрешение войны в пользу Советского государства. Тот факт, что некоторые из перечисленных в статье лиц живы и сегодня, вызывает у нас чувство гордости.

Ключевые слова: Комсомол, коммунизм, социализм, Красная Армия, Великая Отечественная война, орден КРАСНОЙ ЗВЕЗДЫ, фашист.

Germaniya tomonidan boshlangan 1939-yilgi urush butun dunyoni larzaga solgan, millionlab insonlarning yostig`ini quritgan daxshatga aylandi. Dunyo tarixida ikkinchi jaxon urushi deya nomlangan bu qirg`inbarot asosan dunyoning eng yirik davlatlari hisoblanmish Germaniya va SSSR davlatlari o`rtasida bo`lib o`tdi. Nemis fashistlari tomonidan 1941-yilning 22-iyun kuni SSSR hududiga qilingan qujum natijasida boshlangan “Ulug’ vatan” urushi SSSR xalqini sarosimaga tushurib qo`ydi. Qisqa vaqt ichida butun SSSR bo`ylab millionlab yigitlar vatan mustaqilligi, ozodligi uchun o’z xohishlariga ko’ra front sari otlandi.

Butun SSSR bo'ylab "Xamma narsa vatan uchun, fron uchun, g'alaba uchun" degan shiorlar ostida sovet xalqi o'zining barcha mavjud bo'lgan imkoniyatlarni front chizig'iga safarbar qildilar. Bu chaqiriqlarga Jarqo'rg'on rayon mehnatkashlari, ishchilar, kolxozchilar, o'qituvchilar va vrachlar ham qo'shildilar. **Minor** qishloq sovetiga qarashli "**Komunizim**", "**Lelingrad**", "**Sotsializim**", "**Ittifoq**", "**Guliston**", "**O'zbekiston**" kolxoziining azolari ishtirokida katta miting bo'lib o'tadi. Uni rayon partiya komitetining sekretari **Tixomirov** ochdi. U yig'ilganlarga qarata "Vatan chegarasi nemis fashistlari tomonidan buzuldi, sovet xalqi tomonidan dushmanni buyuk vatanimizning oltin tupog'idan chiqarib tashlashga otlandi..." diya takidladi. Yig'ilganlar bir ovozdan "Bosqinchilarga o'lim", "Dushmanlarga lanatlar", "Sovet xalqi g'alaba qiladi", "Biz uchun vatan tuprog'I muqaddas, uni paymol qilishga xichkimga yo'l qo'yaymiz" diya xitob qiladilar. Keying so'z navbatlari "Sotsializim" kolxozi raisi Doli Ernazarov, "Komunizim" kolxozi raisi A.Ximmatov, "O'zbekiston" kolxozi a'zosi Safar Hasanov, "Ittifoq" kolxozi raisi Shaymardon Umarov, "Guliston" kolxozi raisi Ismoil Qo'chqorov, "Lelingrad" kolxozi raisi Xoliq Safarovlar so'zga chiqib komsomol yoshlarini, yigit qizlarni Vatan ximoyasiga otlanishga chaqirdilar. O'zлari esa birinchilar qatorida frontga jo'nash istagini bildirib, ro'yxatdan o'tadilar o'sha kunning o'zida kolxozning 150 dan ortiq dovyurak yigitlari vatan himoyasiga otlanadilar.

Urushning birinchi kunlaridanoq qishloq Soveti va rayon xarbiy lomissarlariga frontga jo'nashni so'rab ko'plab arizalar tushdi. Ariza soxiblari qo'lllariga qurol olib ,jang maydoniga kirish istagini bildirar edilar Ulug' vatan urushining birinchi kunidayoq ,o'z istagi bilan frontga otlanganlar orasida Aliboy aka Mamatqulov xam bor edi .U kolxzoda , qolaversa MTS da ilg'or traktorchi edi. U mehnatda toblangan, o'z ishini puxta biladigan mehnatkash, kasbini jon dilidan sevadigan inson edi. U 1938 yili termiz shahridagi mexanizatorlar tayyorlov markazini tugatib, Jarqorg'on MTS ga ishga bordi.MTS qoshidagi traktorchilar tayyorlov kursi ishiga bosh-qosh boldi va ana shu kursda yigit qizlarga texnikaning sirlarini o'rgata boshladidi. U 1941–yil 22 –iyun kuni MTS darvozasi yonida sim yog'ochga osilgan radio karnayidan fashistlar Germaniyasi Vatanimiz tuprog'iga xoinona bostirib kirganini xamma qatori eshitdi. Aliboy sevimli qishlog'i, oilasi, saxiy dalalar, traktorchilar tayyorlaydigan kurs tinglovchilari va boshqalar bilan xayrashib, barcha ko'ngillilar qatori Vatan ximoyasiga otlandi. U 1941- yil iyul oyida Novorossiyskdagi 2445- artileriya diviziyasiga qabul qilindi. U sovet jangchilariga yo'l ochish maqsadida bir necha kishi bo'lib dushman egallab turgan joyiga razvetkaga bordi. Endigina 18 baxorni ko'rgan o'zbek yigitni dushman ofitserlaridan birini qo'lga olib; til;sifatida olib keldi. Yosh jangchini bunchalik dovyurakligini ko'rgan komandirlar uni maxsus razvedkachilar tayyorlaydigan vzvodga yubordi. Aliboy jasurligi uchun "**QIZIL YULDUZ**" ordeni bilan mukofotlandi.

A.Mamatqulov 1943-yilda Beryozovka shahrida oyog'idan yaralandi. Gospitelda davolanib, yana jangga kirdi. Taman, Kech va boshqa shaharlarni ozod qilishda aktiv qatnashdi.

1943 yil baxorida KPSS safiga qabul qilindi. Qattiq janglarida yana yarador bo'ldi.

Sanitariya bo'limi shifokorlari yordamida xushiga keltirildi. Bokudagi harbiy gospitelga jo'natildi. U yerda 6 oy davolandi. Ayni paytda tankchilar tayyorlov kursida o'qidi. Tankni boshqarish usullarini qunt bilan o'rgandi. oddiy o'zbek yigitni endi starshiy serjantlikga ko'tarildi. 1944 -yil yozida yosh tankchi belarusiya fronti qo'shinlariga qo'shildi. U o'zi qatnashgan tank bilan ko'pgina shaharlarni bosqinchilardan ozod qilishga kirishdi va jasorati uchun 3- darajali "shuhrat" ordeni bilan taqdirlandi. 1946-yil 18-avgustda sevimli qishlog'iga qaytdi. Hozir Aliboy aka kolxozda bosh injener bo'lib ishlayotir. Nurmat Tojiev 1943 -yil 19-may kuni komsomol biletini qo'lga olganida endi 23 baxorga qadam qo'ygan edi. Bu bilet uni mard va jasur bo'lishga chorladi. U darxaqiqat dushmaniga qarshi mardona jang qildi, og'ir janglarning birida Nurmat aka oyog'idan qattiq yaralanib, meditsina komissiyasi xulosasiga binoan o'z yurtiga qaytarildi. Nurmat Tojiyev frontdan qaytib kelgach, xozirgi kommunizm kolxozining Namuna uchastkasidagi ustaxonaga temirchi bo'lib ishlay boshladi. U kolxozchilarning og'irini yengil qildi. ustaxona yonida buzilib yotgan kosilkani tiklash uchun juda ko'p ishlar qildi. Bundan tashqari arava kuzov kabinalar yasadi. kolxoz raisi uni chaqirib eskirgan piloramani ishlatishga topshirganda yo'q demadi. Piloramining xamma tomonini ko'zdan kechirib chiqdi. Kerakli joylarini moyladi, payvandladi, singan detallarni almashtirdi. Xullas tez orada kolxozdagi yagona pilorama ishga tushirildi. Bu yordamida nqanchadan qancha yog'ochlar tozalanib, binolar qurilishi uchun foydalanildi. Bir qancha molxonalar qurildi. U shu kasbda 21 yil ishladi. Kolxozda qolgan qiz-juvonlar, keksalar ham vatan boshiga og'ir kun tushganda qo'l qovushtirib turmadilar.

Urush yillari, dep eslaydi To'ra bobo "juda og'ir yillar bo'ldi, lekin xalqimizning eng qiyin paytlarda ham Vatanga sadoqat bilan, g'alabaga chuqur ishonch bilan yashaganliklarini, o'zimiz uchun ham, frontda jang qilayotganlar uchun ham mehnat qilishimiz kerakligini, chuqur his etardik. Ocharchilik, qishning qaxraton sovug'i daxshatli xuruj qilar, etishmovchilik kishining sillasini quritardi. Ot-ulovlar frontga olingan, traktorlar etishmasdi. Dalada asosiy ish qurollari plug va ketmon edi.

Kunlarning mashaqqatli bo'lishiga qaramay, kolxoz odamlari sabr-toqat bilan mehnat qilishar, og'ir kunlar oldida esankirab qolmaslikning payida bo'lishardi. Qizlarguz Fayzullateva, Ungal bozorova, Oysha Allanazarova, Oysara Sagizova, Oybahor Muhammadiyeva, jorqin Shopmurodova, Bibisuluv xayitova, jumbul Soatova, Chorshanbi bobo, Xudoyberdi bobo, Xolmat bobo, Turdimurod bobo, Oltin Valiyeva, Jumbil Ergasheva, ro'zixol Choriyeva, Gulxol Allanazarova, Oysoat Pirimova, O'ng'al Ermatova, soli Mudaeva, Robiya xurramova, Mopar Jo'rayeva, Xojar Qilichova, Iqbol Jumayeva, Oyimxol Mengqulivolar va Boshqa bir qancha otaxon hamda onaxonlar dalaga chiqib yigitlar o'rnnini egalladilar.

Qizil soqchi kolxozining oddiy a'zosi Oysha Pardayevaning turmush o'rtog'i o'zining yigitchilik burchini oqlash uchun Qizil armiya safiga otlandi. U oysha bilan xayrlashar ekan kolxoz dasliga chioqib fidokorona mehnat qilishni davom ettirishni tayinladi. Oysha qanday ish qilsa kolxozga ko'proq foyda keltirishdi o'yladi, so'ngra traktorchi bo'lib ishlashga qaror qildi. Huddi shu vaqtida jarqo'rg'on MTS qoshida qiz-juvonlardan traktor haydovchilarini tayyorlov kursi ochildi. Oysha, O'ngal shu kursga kirib, texnika sirlarini qunt bilan o'rqnadilar, tinmay o'qidilar.

Natijada o'qishni a'lo baholar bilan tamomlab, ulkar o'z qishlog'iga tamomlab, ular o'z qishlog'iga qaytadilar. Ular har kuni normadagi 2.5 hektar yer haydash o'rniga 4.5 hektarlab yerni shudgor qilardilar. Oysha, O'ngal bilan birga 20 dan oshiq, qiz-juvonlar ana shu kursni bitirib chiqdi.

Biz qiz-juvonlar deydi Oysha Pardayeva, jonajon vatanimizni nemis bosqinlari hujumidan qutqarish uchun kurashayotgan, ajoyib g'alabalarini qo'lga kiritayotgan erlarimiz, aka-ukalarimiz, otalarimiz o'rnida ishlab, o'z burchimizni bajarish uchun sharaf bilan kurashdik.

1941-yilda hozrigi Komunizm kolxozi territoriyasida mayjud bo'lgan kolxozlarning har birining ekin maydoni 450-600 hektarni tashkil etar edi. Shu yili 200-250 hektar yerda ingichka tolali paxta yetishtirib, har gektarida 23-25 senterdan bajarildi. Davlat go'sht, tuxum, sut, jun yetkazish planlarini 124 prosentga bajarildi.

D.Razzaqov 1940-1941- yillarda zeveno boshlig'i bo'lib ishlab, o'ziga biriktirilgam 85 hektar yerning har gektarida 55 sentrdan hosil ko'tardi. U 1944-yili 100 sentnerchilar brigadasi boshlig'i bo'ldi. Har besh gektardan paxta maydoniga 38 tonna go'ng, 58 tonna eski devor tuprog'i tashab solindi. Hosildorlik 55 sentnerdan 60 sentnerga ko'tarildi. Partiya va hukumatimiz D.Razzaqovning mehnatini taqdirlab, uni Mehnat Qizil Bayroq, ordeni bilan mukofatlaydi.

1942- yilda Kommunizm kolxozi 300 tonna paxta, 2346 kilogramm go'sht, 620 kilogramm pilla yetishtirib, davlatga sotdi. Kolxozchilar 5000-10000 so'mgacha harbiy zayomlarga yozdilar. Kolxoz g'alab uchun qaysi ish qilinishi kerak bo'lsa, uning hammasi so'zsiz bajariladi.

1943-yil 2-aprelda Ilg'or Surxon uchun oblast gazetasida N-qism jangchilarinig oblast mehnatkashlarga ochiq, xati bosilib chiqdi. Bu maktubda Surxondaryolik shongli jangchilardan Chori ermatov, Xolbay Xolmatov, Oltiboy Rahimov, Rahim Boboyev, Sulton Jo'rayev va boshqalarning fashizimga qarshi mardlik va qahramonlik ko'rsatayotganliklari to'g'risida habar qilingan edi. Vatani himoya qilayotgan bu jangchilarning maktubi minorliklarni ham katta hayojonga soldi. Ular ham barcha yurtdoshlari qatori mehnat qahramonlik namunalarini ko'rsatishga intildilar. Keksa otaxonlar, xotin-qizlar kunduzni-kunduz, kechani-kecha demasdanmehnat qildilar. kunlik topshiriqlarni 2-3 xissa qilib ortig'i bilan bajardilar.

Butun kolxozchilar hosildorlikni oshirish, frontga ko'proq, oziq-ovqat, kiyim-kechak yetqazib berish uchun jonbozlik ko'rsatdilar. Bunday muhim ishga kolxozi pravleniyasi, va partiya va komsomol tashkilotlari va yetakchilik qildilar.

Xo'jalikda paxta, pilla, sut, sabzavot va boshqa qishloq, xo'jalik va mahsulotlari ishlab chiqarish davlat planlarini bajarish choralarini ko'rildi. Barcha kolxozi a'zolari va dala ishlariga bajarish choralarini ko'rildi. Barcha kolxozi a'zolari dala ishlariga safarbar etildi. Bu esa partianing front, front ortida olib borgan ashkilotchilik ishlari, to'g'ri rahbarlikning natijasi edi.

Hamma joyda bo'lganidek, Kommunizm kolxozi a'zolari ham frontdagi jangchilarimiz uchun kiyim-kechak tikish, mudofa fondi uchun pul to'plab jo'natishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Dehqon Ittifoq kolxozi a'zosi Eshonqurbanov, Qizil soqchi kolxozi a'zolari Yodgor, Xudoyberdiyev kabi o'nlab ishlarning har biri yuz so'mdan pul to'plab topshirdilar. Kolxozi bo'yicha jami 800ming so'm pul 60 tonna oshqovoq, 90 tonna sabzi front uchun jo'natildi. Har bir kishi vatanparvarlik tuyg'usini naqadar a'zolari ezozlashi, vatan so'zini muqaddas deb bilish o'shabda yaqqol namayon bo'lgan edi. Kommunizmliklar so'nggi bir burda nonni ham front jamg'armasiga berishga tayyor edilar. Yetishmovchilik paytida bu zo'r jasorat edi. Oddiy kolg'ozchi turg'unboyeva har kuni kunlik topshiriqni 2-2.5 xissa bajarish bilan birga kolxozchilar o'rtasida agitatorlik ishlarni ham olib bordi, kundalik habarlar bilan tanishtirib bordi. Masalan u gazetadan Andijon oblast Jalolquduq, rayoni mehnatkashlarining Toshkent shahri ishlariga oziq-ovqat yuborganlilari haqidagi maqolani o'qib berdi. Butun kolxozi a'zolari shu tashabbusni maqullashdi. Ular ham o'z tomorqalaridan yetishtirib olgan sabzi, oshqovoq, va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini Toshkent shahar mehnatkashlariga yuborish uchun to'play boshladi. Qisqa vaqt ichida 30 tonnadan oshiq, mahsulotlari yuborildi- deb yozadi Ilg'or surxon uchun gazetasi ana shu tashabbus haqidagi maqolada.

Shuningdek kolxozchilar o'rtasida Qizil Armiyaning 25 yillik bayrami munosabati bilan revolyusatsiya beshigi-Leningrad shaxrini himoya qilayotganlarga bayram sovg'alari yuborish ishlari qizib ketdi.

Og'ir kunlar va yillar o'tib ketdi. Kishilarning orzu qilgan kunlari yetib keldi. Urush yillari tufayli ro'y bergan qiyinchiliklar bartaraf etilib, butun kuch va imkoniyatlari davlat planlarini bajarishga qaratildi.

Ulug' g'alabaning 30 yilligi munosabati bilan kolxozi pravleniyasining yangi binosi yonida tashkil etilgan kichkina bog'da xalqimizning baxt-saodati, ozodligi uchun nemis bosqinchilariga qarshi olib borgan jangda qahramonlarcha halok bo'lgan 109 sher yigitlarning xotirasi sharafiga o'rnatalgan yodgorlik ochildi.

Bu joy kolxozi komsomol-yoshlari va mehnatkashlarning muqaddas joyiga aylanib qolgan.

Yodgorlik atrofida urushda halok bo'lgan jangchilarning familyalari zarxarflar bilan bitilgan.

Ular quyidagilardir:

M.Qurbanov

O.Xo'jiyev

K.Jo'rayev

O.Rahimov

A.Toshpo'latov

aka-uka Mallayevlar

M.Berdiyorov

M.Jo'rayev

A.Pirmatov

K.Normurodov

O.Jumayev

T.Muqimov

E.Qodirov

O.Ximmamatov

M.Tog'ayev

O.Normurodov

R.jo'rayev

J.Mamatov

R.Qo'ziyev

B.Tilovov

H.Qudratov

B.To'xtayev

aka-uka Eshto'xtarovlar

A.Omonturdiyev

R.Eshboyev

Q.Yo'lidoshev

E.Isayev

aka-uka Xo'janazarovlar

D.Davlatov

N.Imomov

E.Qodirov

H.Hakimov

Z.Choriyev

aka-ika Ashurovlar

M.Xo'jamberdiyev

A.Poyanov

X.Choriyev

M.Ro'ziyev

X.Xolmurodov

H.Butayarov

B.Xolliyev

H.hakimov

O.Mengliqulov

S.Qo'lidoshev

N.Normo'minov

O.Poyanov

A.To'rayev

J.O'ronov

I.Oqnazarov

M.Tog'aynazarov

Q.Xudoyqulov

A.Xaydarov

X.Razzaqov

E.Temirov

I.Berdiyev

Q.Qobilov

X.Shoymardanov

I.Rasulov

B.Yaxyoyov

E.Qurbanov

Q.Bekmurodov

B.Berdinazarov

X.Qo'ziyev

H.Abdurahmonov

I.Nurmatov

X.Bo'riyev

U.Nurmatov

Q.Beknazarov

A.Xayitov

G'.Xolliyev

S.Allamurodov

H.Xolboyev

M.Umarov

J.Ro'ziyev

A.Allayarov

X.Xolmurodov

H.Butayarov

B.Xolliyev

H.hakimov

O.Mengliqulov

S.Qo'lidoshev

N.Normo'minov

J.Chipo'latov

E.Shoymardanov

N.Berdinazarov

A.Mamatrayimov

I.Berdiquulov

A.Nurmatov

E.Abduxoliquov

N.Rahmatov

D.Beknazarov

X.Mengnazarov

K.Dusnayev

X.Eshmurodov

A.Bobomurodov

E.Abdunazarov

X.Qulmurodov

X.Muqimov

E.Choriyev

A.Bobomurodov

E.Abdunazarov

Xakqimiz Mardlik-mangulik- deydi. To'kilgan qon, qurban bo'lganlar xotirasi xech qachon, xech kimning esidan chiqmaydi. Xech kim, xech narsa unutilmaydi!

REFERENCES

1. Musallam Jo'rayev. O'zME. Toshkent, 2000-2005.
2. Finlandiya va SSSR o'rtaida tinchlik haqidagi kelishuv, III band, Moskva, [12-mart 1940](#)
3. O'zbekiston Respublikasi Xotira kitobi — Kniga pamyati Respublikni O'zbekiston [maxsus jild], T., 1995
4. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonning tarixiy hissasi. 1941 — 1945 [Ilmiynazariy konferensiya materiallari], T., 1996